

Vatanjonim, Vatanim

Po'lat Mo'min



Po'lat Mo'min
1922–2004

Po'lat Mo'min – o'zbek bolalar yozuvchisi, shoir, dramaturg va tarjimon.

Uning birinchi she'riy to'plami 1949-yilda nashr etilgan. "Sayrang, qushlar", "Tong kuylari", "Hunardan unar", "To'g'ri o'sgan gul bo'lur" kabi she'riy to'plamlar adibning ilk ijod mahsullaridir.



O'qing.



Vatanjonim, Vatanim,
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqboldan kulganim,
O'zbekiston – gulshanim.
Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.

Vatanjonim, Vatanim,
O'zbekiston – gulshanim.
Sen o'xshaysan onamga,
Maqtay butun olamga.
Vatanjonim, Vatanim,
O'zbekiston – gulshanim.



1. She'r nima haqida ekan?
2. Inson vatanini nima uchun yaxshi ko'radi?
3. Vatan kimga o'xshatilgan? Nima uchun?



Istiqlol yulduzlari

Zahro Hasanova



O'qing.

Istiqlol yulduzimiz,
Vatanning gul yuzimiz.
Kelajakka intilgan
Erka o'g'il-qizimiz.

“Ona Vatan” so‘zini
Dillarga jo etganmiz,
Madhiyamizni kuylab,
Murodlarga yetamiz.

Yurtimiz bayrog‘ini
Ko‘taramiz yuksakka.
Ko‘zimiz qarog‘ini
Doim tutamiz tikka.

Ahd-shaxtimiz basma-bas,
Dunyo qilmoqda havas.
Sinab ko‘ring, marhamat,
Iste’dodlar kam emas.



O‘qilgan she‘rlarni quyidagi reja asosida qiyosiy tahlil qiling:

1. She‘ning nomi.
2. Asosiy g‘oyasi.
3. Olinadigan saboq.



O‘zingizga yoqqan she‘rni yod oling.

